

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>B.A.Abduvaliyev</b>   |     |
| Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar .....                   | 648 |
| <b>M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova</b>   |     |
| Farg'ona shahar tabiiy yer osti buлоq suvlарining gidroekologik holati.....  | 652 |
| <b>M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev</b>   |     |
| Farg'ona vodiysi florasiда tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili .....              | 657 |
| <b>T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Usmonov, O.A.Turdiboyev</b>   |     |
| Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981) .....   | 662 |
| <b>M.X.Akbarova, O.Turdiboyev</b>  |     |
| <i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi .....   | 667 |
| <b>M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov</b>  |     |
| Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024) .....  | 670 |
| <b>M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov</b>  |     |
| Bo'yoqbop drok-( <i>Genista tinctoria</i> ) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari .....                            | 674 |
| <b>G.N.Shokirova</b>   |     |
| Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash .....  | 677 |
| <b>I.P.Urinboev, F.P.Jumaboeva</b>   |     |
| Oпылление и плодоношение цветков вида липа ( <i>Tilia tomentosa</i> ), интродуцированного в ферганскую урбинофлору.....  | 682 |
| <b>M.A.Davidov, I.P.Urinboev</b>   |     |
| Опылление и цветение видов липы во флоре города Ферганы.....   | 686 |
| <b>M.A.Masodiqova</b>  |     |
| Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi .....   | 689 |
| <b>M.A.Masodiqova</b>  |     |
| Eribidae oilasi ( <i>Limantriya dispar</i> ) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi ..... | 692 |
| <b>V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev</b>  |     |
| Shohimardonsov havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....                                       | 695 |
| <b>M.Q.Asadova</b>   |     |
| Poliploidiya va uning boshoqli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati .....   | 698 |
| <b>M.M.Mamajonova, V.Mahmudov</b>  |     |
| Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiysi va istiqbollari .....      | 701 |
| <b>S.M.Xaydarov, F.N.Mingboev</b>  |     |
| Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosuvu'tini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish .....                       | 703 |
| <b>S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboev</b>  |     |
| Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish ..... | 706 |
| <b>Z.A.Yusupova</b>  |     |
| Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasi .....  | 709 |
| <b>Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov</b>  |     |
| Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....   | 712 |
| <b>Z.A.Yusupova</b>  |     |
| O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari .....                    | 717 |
| <b>M.P.Yuldasheva</b>  |     |
| Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili<br>(JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida) .....                 | 721 |
| <b>M.K.Aсадова</b>   |     |
| Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования .....   | 726 |
| <b>B.Махмудов, М.К.Жабаралиева</b>   |     |
| Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия .....          | 729 |



УО'К: 577.4:577.42+628.15

**FARG'ONA SHAHAR TABIIY YER OSTI BULOQ SUVLARINING GIDROEKOLOGIK HOLATI**

**ГИДРОЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНЫХ ПОДЗЕМНЫХ РОДНИКОВЫХ ВОД Г.ФЕРГОНА**

**HYDRO-ECOLOGICAL CONDITION OF NATURAL UNDERGROUND SPRING WATERS OF FERGONA CITY**

Xolikulov Murodjon Roboljonovich<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, dotsenti

Xatamova Surayyo Bahodirjon qizi<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya**

*Xozirgi paytgacha ichimlik suvi sifatida tabiy yer osti buлоq suvlaridan ham foydalanan kelinmoqda. Lekin aholi orasida istemol qilgan suvlarini tarkibiga va minerallashuviga ahamiyat berilmaydi. Qolaversa ichimlik suvi mahsus liniyalar orqali yetib bormagan joylarda yer osti buлоq suvleri sevib istemol qilinadi. Bu esa inson sog'lig'i uchun xavf tug'diradi.*

*Shu sababli Farg'ona shahrida tarqalgan tabiy yer osti buлоq suvlarining gidroekolgik xolati o'rganilib taxlil qilindi. Unga ko'ra Farg'ona shahrida tarqalgan tabiy yer osti buлоq suvlarini tarqalgan joylari, ularning paydo bo'lish tarixi, duquqlarning o'lchami, chuqurligi va ularning GIS xaritasi tuzilgan. Qolaversa tabiy yer osti buлоq suvleri laboratoriya taxlilidan o'tkazilib, istemol uchun yaroqli yoki yaroqsiz ekanligi aniqlagan va bu bo'yicha Farg'ona viloyati davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi tomonidan hamkorlikda suvlarini tekshirish bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirilgan.*

*Tabiy yer osti buлоq suvlarini o'rganishda asosan kuzatish, taqqoslash, matematik va laboratoriya uslularidan foydalanan namunalar olindi va taxlil qilindi.*

**Аннотация**

До сих пор в качестве питьевой воды используется также природная подземная родниковая вода. Однако население не обращает внимания на состав и минерализацию потребляемой воды. Кроме того, в местах, куда питьевая вода не поступает по специальным трубопроводам, потребляется подземная родниковая вода. Это представляет угрозу для здоровья человека.

По этой причине было изучено и проанализировано гидроэкологическое состояние природных подземных родниковых вод, распространенных на территории города Ферганы. По нему составлены местоположения естественных подземных источников в городе Фергана, история их возникновения, размеры и глубина ям и их ГИС-карта. Кроме того, природные подземные родниковые воды были подвергнуты лабораторному анализу и определены, пригодны они для употребления или нет, в связи с чем Центром государственного санитарно-эпидемиологического контроля Ферганской области совместно выданы заключения по проведению испытаний воды.

При изучении природных подземных родниковых вод отбирали и анализировали пробы преимущественно с использованием методов наблюдения, сравнения, математических и лабораторных методов.

**Abstract**

*Until now, natural underground spring water is also used as drinking water. However, the population does not pay attention to the composition and mineralization of the water they consume. In addition, in places where drinking water does not reach through special lines, underground spring water is consumed. This poses a threat to human health.*

*For this reason, the hydroecological condition of natural underground spring waters distributed in the city of Fergana was studied and analyzed. According to it, the locations of natural underground springs in Fergana city, the history of their occurrence, the size and depth of pits and their GIS map were compiled. In addition, natural underground spring waters were subjected to laboratory analysis and determined whether they are suitable for consumption or not, and in this regard, the state sanitary-epidemiological control center of Fergana region issued reports on water testing in cooperation.*

*In the study of natural underground spring waters, samples were taken and analyzed mainly using observation, comparison, mathematical and laboratory methods.*

**BIOLOGIYA**

**Kalit so'zlar:** Yer osti buloq suvi, suv tarkibidagi moddalar, labotoriya taxlillari, ochiq suv havzasasi, yopiq suv havzasasi, suv menerallahushi, yuqorigi qism, o'tta qism,pastki qism, Soburbuloq buloqlari, Joydam buloqlari, Yormozor buloqlari.

**Ключевые слова:** Подземные родниковые воды, вещества в воде, лабораторный анализ, открытый водоем, закрытый водоем, минерализация воды, верхняя часть, средняя часть, нижняя часть, источники Собурбулук, источники Джойдам, источники Ёрмозор.

**Key words:** Подземные родниковые воды, вещества в воде, лабораторный анализ, открытый водоем, закрытый водоем, минерализация воды, верхняя часть, средняя часть, нижняя часть, источники Собурбулук, источники Джойдам, источники Ёрмозор.

**KIRISH**

Respublikamiz mustaqilikkaga erishgandan so'ng eskidan sug'orilib, dehqonchilik qilib kelinayotgan unumdar ekin maydonlari katta-katta kapital qurilishlar va shaxsiy tomorqa xo'jaligi uchun ajratib berildi. Agromeliorativ holati yaxshi yerlarimiz esa o'zlashtirilib bo'lingan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtai nazardan qaraganda, suv zahiralarning, shu jumladan yer osti va yer osti suvlaring keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda. Respublikani daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyati ta'siriga uchramoqda[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

V.N Kunin (1966) ma'lumotiga ko'ra 1 km<sup>2</sup> dagi taqirdan yiliga o'rtacha 15 m<sup>3</sup> gacha chuchuk suv olish mumkin. O'rta Osiyo va Qozog'istonda yer osti suv lari sanoat maqsadlari va yaylovda chorvachilik ehtiyojlari uchun keng foydalanilmoqda. Bitta artezian qudug'inining suvi bilan 25000 qo'yni yoki 10-15 ga yerni sug'orish mumkin. [2]

M.I.Lovich (1974) hisobiga ko'ra, mamlakatimiz suv resurslarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan tuproqdagi nam miqdori 7000 km<sup>3</sup> ga teng. Okeanlar,dengizlar,daryolar, ko'llar, muzliklar, qor qoplami tuproq va o'simliklar yuzasidan yiliga 525100 ming km<sup>3</sup> suv bug'lanadi. [3]

Losev A. ma'lumotiga ko'ra, yiliga 670 km<sup>3</sup> atrofida suv ishlataladi, buning 320 km<sup>3</sup> issiqlik elektr stansiyalariga to'g'ri keladi. O'sha 670 km<sup>3</sup> suvning 400 km<sup>3</sup> ifloslangan yoki yarim tozalangan holda (shundan 320 km<sup>3</sup> IES dan chiqqan iflos issiqlik suv) tabiiy manbalarga tashlanadi. Qolgan 270 km<sup>3</sup> esa bug'lanish, shimilishi va boshqalar hisobiga yo'q bo'lib, tabiiy xavzalarga qaytib tushmaydi. So'nggi paytlarda ko'pgina sanoat korxonalarida suvdan aylanma usulda foydalanishga o'tish tufayli tabiiy manbalardan (daryo, ko'l, yer osti suvlardan) olinayotgan suvlar km<sup>3</sup> ga qisqargan. [4]

P.Baratovning (1980) ta'kidlashicha suv shunday qudratli kuchga egaki,yerning hozirgi relefi suvning uzuliksiz faoliyati natijasida shakllanadi va yanada murakkablashadi. [5]

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Farg'ona shahar hududi qadimda botqoqlik, suv ko'p sernam joy bo'lgan, shuning uchun shahar hududiga ko'plab chinor daraxtlari ekilgan.Chinor suvni o'ziga tortib ko'proq bug'latish xususiyatiga ega. Shahar hududining relefi bir tekis tarqalmagan.Pastlik, balandlik zonalari mavjud bo'lib, past joylarda yer osti suvi, buloq suvlari paydo bo'lgan. Jumladan Farg'ona shaharning Yormozor MFY va Sharshara MFY hududi, shuningdek Qirgili mavzesida ko'plab buloqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Buloqlarning joylashuvi qachon va qanday paydo bo'lganini o'rganish davomida, ularning ba'zilari qarovsiz, ba'zilari esa aholi xonardonida joylashganligi aniqlandi.

Yormozor hududida dastlab 1960-1970 yillarda buloqlar soni 65 tani tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib esa ularning atiga 17 tasi saqlanib qolingga. Shundan 10 ga yaqini qarovsiz xolda ekanligi, qolganidan esa aholi ichimlik suvi sifatida bir necha yillardan beri davomiy foydalanib kelinmoqdalii aniqlangan. Ko'pchilik aholi buloq suvi chiqqan joyni muqaddas joy ya'ni ziyyaratgoh sifatida dam olish maskani va boshqa maqsadlarda foydalanishadi. Bu albatta aholi uchun juda yaxshi hisoblanib, insonlar bunday joylarda madaniy hordiq olishlari mumkin. Aholi buloq suvlarini uzoq joylardan kelib ham ichish uchun olib ketadi. Yormozor MFY sida yashovchi nuroniy otaxonimizning so'zlariga qaraganda, buloqlar juda qadimdan beri mavjudligi va ular avval ko'p bo'lganligini, bir buloq suvining ta'mi shifobaxshligi boshqa buloq suviga o'xshamasligi, barchasi o'ziga xos ekanligini aytib o'tdilar.

Yana bir xudduda ya'ni Kirgili mavzesida joylashgan Soburbuloq bulog'i ham aholining ichimlik suv manbalaridan biri hisoblanadi. Biz Soburbuloq bulog'i haqida kerakli ma'lumotlarni olish uchun, Soburbuloq MFY sinning nuroniy onaxoni 1945-yilda tug'ilgan 78 yoshli Dadajonova

Xosiyatxon onani suxbatlarini tinglab o'tdik. Soburbuloqning so'zi Sabrbuloq so'zini og'izdan og'izga o'tib Soburbuloq so'zi kelib chiqqan. Bu suv ham juda qadimdan mavjud bo'lib, aholining ichimlik suvi hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida suv sifatini o'rganish maqsadida olingan namunalar bo'yicha taxlillarni quydag'i 1,2,3 jadvallarda ko'rishimiz mumkin.

**1-jadval**

Farg'ona shahar Yormozor MFY Ipak yo'li ko'chasi "Sobir ota" choyxonasi. Namuna olinga olingan sanasi 15.12.2023 yil.

|                                    |            |
|------------------------------------|------------|
| Xidi(20° dagi bal hisobida)        | 0          |
| Xidi(60° dagi bal hisobida)        | 0          |
| Tami(20° dagi bal hisobida)        | 0          |
| Rangi                              | 5,1        |
| Loyqaligi(mg/dm <sup>3</sup> )     | 0,1        |
| Cho'kmaligi                        | cho'kmasiz |
| PH                                 | 7,0        |
| Qoldiq xlor miqdori                | -          |
| Oksidlanuvchanligi                 | -          |
| Amiakligi(mg/dm)                   | -          |
| Nitritligi(mg/dm)                  | -          |
| Nitratligi(mg/dm)                  | 4,8        |
| Umumiy qattiqligi(mg/ekv.dm)       | 14         |
| Quruq qoldig'i(mg/dm)              | 840        |
| Sulfatlar(mg/dm)                   | 400        |
| Temir(mg/dm)                       | 0,05       |
| Mis(mg/dm)                         | 0,06       |
| Ftor(mg/dm <sup>3</sup> )          | 0,07       |
| Polifosfatlar(mg/dm <sup>3</sup> ) | 0,08       |
| Xloridlar(mg/dm <sup>3</sup> )     | 100        |

**2-jadval**

Farg'ona shahar Sharshara MFY Sharshara ko'chasi №83. Suv olingan kun: 15.12.2023 yil.


|                                    |            |
|------------------------------------|------------|
| Xidi(20° dagi bal hisobida)        | 0          |
| Xidi(60° dagi bal hisobida)        | 0          |
| Tami(20° dagi bal hisobida)        | 0          |
| Rangi                              | 5,1        |
| Loyqaligi(mg/dm <sup>3</sup> )     | 0,3        |
| Cho'kma                            | cho'kmasiz |
| PH                                 | 7          |
| Qoldiq hlor miqdori                | -          |
| Oksidlanuvchan                     | -          |
| Amiakligi(mg/dm)                   | -          |
| Nitritligi(mg/dm)                  | -          |
| Nitratligi(mg/dm)                  | 4,9        |
| Umumiy qattiqligi(mg/ekv.dm)       | 16         |
| Quruq qoldig'i(mg/dm)              | 845        |
| Sulfatlar(mg/dm)                   | 420        |
| Temir(mg/dm)                       | 0,06       |
| Mis(mg/dm)                         | 0,07       |
| Ftor(mg/dm <sup>3</sup> )          | 0,08       |
| Polifosfatlar(mg/dm <sup>3</sup> ) | 0,09       |
| Xloridlar(mg/dm <sup>3</sup> )     | 150        |

Farg'ona shahar Qirgili mavzesi Soburbuloq MFY Soburbuloq guzari. Suv olingan kun: 15.12.2023 yil.

|                                    |              |
|------------------------------------|--------------|
| Xidi(20° dagi bal hisobida)        | 0            |
| Xidi(60° dagi bal hisobida)        | 0            |
| Tami(20° dagi bal hisobida)        | 0            |
| Rangi                              | 5,0          |
| Loyqaligi(mg/dm <sup>3</sup> )     | 0,2          |
| Cho'kma                            | cho'kmasisiz |
| PH                                 | 7            |
| Qoldiq xlor miqdori                | -            |
| Oksidlanuvchan                     | -            |
| Amiakligi(mg/dm)                   | -            |
| Nitritligi(mg/dm)                  | -            |
| Nitratligi(mg/dm)                  | 4,6          |
| Umumiy qattiqligi(mg/ekv.dm)       | 14,5         |
| Quruq qoldig'i(mg/dm)              | 835          |
| Sulfatlar(mg/dm)                   | 410          |
| Temir(mg/dm)                       | 0,07         |
| Mis(mg/dm)                         | 0,08         |
| Ftor(mg/dm <sup>3</sup> )          | 0,09         |
| Polifosfatlar(mg/dm <sup>3</sup> ) | 0,08         |
| Xloridlar(mg/dm <sup>3</sup> )     | 120          |

Yuqoridagi taxlil jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki umumiyy qattiqligi(mg/ekv.dm) darajasi 14, 14,5, 16 ligi ma'lum bo'ldi. Bu esa suvni ichish yaroqsiz ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa bu taxlil namunasini MFY raislari va aholi orasidagi targ'ibot-tashviqotlarimizda ogohlantirib o'tildi.

Farg'ona shahar yer osti tabiiy buloq suvlarining hozirgi holati o'rganish bo'yicha joylarga tadqiqotlar uyushtildi. Natijada jami 17 ta buloq saqlanib qolganligi aniqlandi va ularning joylashuv o'rni aniqlanib GIS haritasi tuzildi. rasm-№1



1-rasm. Farg'ona shahar tabiiy yer osti buloq suvlarini GIS xaritasi  
**XULOSA**

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Farg'ona shahrida mavjud 65 ta tabiiy yer osti buloq suvlarini o'rganishimiz davomida shahar infratuzilmasini o'zarishi va aholini antropogen ta'siri natijasida bor yo'g'i 17 buloq saqlanib qolninganligi ma'lum bo'ldi. Qolaversa buloq suvi aholi tomonidan ichimlik suvi sifatida istemol qilinishi, shifobaxsh deb yuritilgan barcha buloq suvlarini qattiqlik darajasi meyoridan ortiq chiqishi unu ichimlik suvi sifatida ichish mumkin emasligi haqida asosli manba ekanligini ko'rsatdi.

Yangiligi va qiziqarlisi bu buloqlarning tarqalish joylari o'rganilib GIS xatitasi birinchi bor shlab chiqildi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sod Farmoni. 2019-yil 30-oktabr. <https://lex.uz/ru/docs/4574008>
2. Sultonov. P., Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent, "Musiqa" nashriyoti. 2007.
3. Baratov. P., Mamatqulov. M., Rafiqov. A - O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 2002
4. Azizov E., Mingaliev Z. Mo'jiza suv. Toshkent O'zbekiston. 1990.
5. Abdug'aniyev.O., Kosimov. D., Ashurov.A., Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanma. Farg'ona, 2023